FARG‘ONA VODIYSINING SUYUNCHXOJAXON MULKLARIGA QO‘SHILISHI

Abdurashid Nishonov
Farg‘ona davlat universiteti doktaranti

Annotatsiya

Maqolada XVI asr dastlabki choragida Farg‘ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tahlil etilgan. Qozoqlar ustiga qilngan yurishdan ko‘nli to‘lmagan Shayboniyxon Jonibek sulton mulki bo‘lgan Farg‘onani Sevichxojaxonga beradi. O‘z mulklarini markazi sifatida Toshkentni tanlagan xon vodiy viloyatlarini tayinlangan hokimlar orqali boshqargan. Sevinchxojaxon davrida vodiy shaxarlari Marg‘ilon, Andijonda xalq noroziliklarini kuchayishi, bu hududda shayboniy sultonlarning mavqeyi mustaxkam emasligi ta’kidlab o‘tilgan. Farg‘ona vodiysida Sevinchxojaxon hukmronligi davrida tarixiy voqealar manbalar va mavjud adabiyotlarga tayanilib tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Andijon, Xo‘jand, Marg‘ilon, hokim, Sevinchxojaxon, Sulton Saidxon, Mavlono Shoh Husayn*.

KIRISH

O‘zbekiston tarixida Shayboniylar davriga oid ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada Farg‘ona vodiysiga oid ma’lumotlar juda kam uchraydi. Ilk o‘rta asrlardan Qo‘qon xonligining vujudga kelishiga qadar bo‘lgan katta davr haqidagi ilmiy ishlarda Farg‘ona vodiysi tarixini tadqiqi kamchilikni tashkil etadi. So‘nggi yillarda vodiyning V-XVI asr boshlariga qadar bir qator tadqiqotlar ilmiy jamoatchilikka taqdim etilmoqda [1], [2]. XVI asrda Farg‘ona vodiysi tarixi bo‘yicha tadqiqot ishlarining soni anchayin kam sonlidir. Natijada, Temuriylar davridan Qo‘qon xonligigacha bo‘lgan Farg‘ona vodiysi tarixida qanday ijtimoiy, siyosiy jarayonlar yuz berganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavxumligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib biz o‘rganayotgan Sevinchxojaxon hukmronligi davrida Farg‘ona vodiysiga oid tarixiy jarayonlar manbalar asosida tadqiq qilingani ushbu mavzu dolzarbligini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Sevinchxojaxon hukmronligiga oid Farg‘ona vodiysining tarixi haqida so‘z yurivtuchi yozma manbalardan biri Muhammadyor ibn Arab Qatag‘onning “Musahhir al bilod” asaridir. Ushbu manbaning birinchi bobi va Sevinchxojaxon va uning avlodlariga bag‘ishlangan uchinchi bobida Sevinchxojaxon davrida Farg‘ona vodiysidagi voqealar bayon qilingan. Yana bir muxim manba Mirzo Muhammad Haydarni “Tarixi Rashidiy” asari bo‘lib, unda Sulton Saidxon hayotiga oid voqealar bayonida Farg‘ona vodiysiga oid qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Iskandarbek Munshiyning “Tarixi olamoroyi Abbosiy”, Zayniddin Muhmud Vosifiyning “Badoe’ul vaqoe’” asarlarida biz tadqiq etayotgan mavzuga tegishli ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Lekin ushbu manbalarda asosan Movarounnahr markazidagi tarixiy voqealar yoritilgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysi haqidagi tafsilotlar juda qisqa hamda ular o‘rtasida ketma-ketlik, o‘zaro bog‘liqlik yetishmaydi. Muhammad Mufti Ohangaroniyning “Mavlono Lutfulloh manoqibi” asarida biz o‘rganayotgan Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar xaqida ma’lumotlar mavjud.

Farg‘ona vodiysida Sevinchxojaxon hukmronligi davri tarixi ilmiy adabiyotlarda juda kam tadqiq etilgan. A.Juvonmardievning “XVI – XIX asrlarda Farg‘onada yer-suv masalalariga doir” asaridagi Axsi viloyatining Koroskon hududidani mulkdorga berilgan yorliq orqali biz o‘rganayotgan davrda bu hududlarni xon nimidan kim boshqarilganligiga oydinlik kiritilgan. Farg‘ona tarixiga oid ba’zi fikr-mulohazalar Markaziy Osiyoning umumiy tarixiga bag‘ishlangan asarlardan biri Yu.Bregelning “An historical atlas of Central Asia” da uchraydi. Biz manbalardagi mavjud ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlarda berilgan fikr-mulohazalarni tahlil etib, Sevinchxojaxon davrida Farg‘ona vodiysida yuz bergan tarixiy voqealarning tadqiq etishga harakat qildik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni o‘rganishda tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayanildi. Mualliflarining hikoya qilinayotgan voqealarga qay darajada aloqadorligi hamda ularning shaxsiy qarashlaridan kelib chiqib, tarixiy manbalarga tanqidiy yondashildi. Manbalardagi ma’lumotlarni mantiqiy jihatdan bog‘lash jarayonida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi. Tarixiy voqea va hodisalarning mintaqalararo bog‘liqlikda rivojlanishidan kelib chiqib, ilmiy farazlar bildirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shayboniyxonning 1509 yil qozoqlar ustiga qilgan yurishida muvaffaqiyatsizlikka uchrashi Farg‘ona vodiysigagi siyosiy vaziyatga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ushbu yurishning natijalaridan norozi bo‘lgan Shayboniyxon suyurg‘ol egalarini rotatsiya qildi, ya’ni ularning mulklarini almashtirdi. Buning oqibatida Farg‘ona hokimi Jonibek Sulton Karmana hududini boshqarishga o‘tkazilib, uning suyurg‘oli bo‘lgan vodiy esa Sevinchxojaxonnga in’om etildi. Sevinchxojaxonning Farg‘ona vodiysidagi hokimlik davrini ikki bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi bosqich 1509-1510, ikkinchi bosqich esa 1514-1524 yillarni o‘z ichiga oladi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, Sevinchxojaxon davrida Farg‘ona vodiysi Toshkent vohasi bilan birgalikda uning tasarrufida bo‘lgan. U o‘ziga tegishli mulklarning markazi sifatida Toshkent shahrini tanlagani uchun vodiyni o‘zi tayinlagan hokimlar orqali boshqargan.

Farg‘onada Sevinchxojaxon hukmronligini birinchi bosqichi juda qisqa davrni o‘z ichiga olgan. U bu davr ichida Farg‘onani to‘la boshqaruviga olishga hamda bu yerda hokimiyatini mustahkamlashga ulgurmagan. Shayboniylar va Safaviylar davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarni keskinlashuvi tarixiy voqealar rivojini o‘zgartirib yubordi. Ismoil Safaviyning hujumi natijasida Shayboniyxon Marv shahrida qamal qilindi. Unga yordam berish uchun borayotgan sultonlar safida bo‘lgan Sevinchxojaxon Toshkent shahridan to‘g‘ri Samarqand tomon yo‘l olishga majbur bo‘ldi. Bu haqida Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an – “Haqiqatdan ham Sevinchxoja sulton Baroqxon laqabi bilan tanilgan Navro‘z Ahmad sulton va Keldi Muhammad sulton ismli o‘g‘illari bilan Toshkent, Turkiston, Axsi, Andijon ko‘shiniga bosh bo‘lib... uning xalifalik taxti poyiga kelayotgan edilar”, - deb ta’kidlagan edi [3]. Shayboniyxonning Marvdagi halokati, Bobur mirzoning Puli Sangindagi g‘alabalaridan so‘ng Sevinchxojaxon boshqa shayboniy sultonlar kabi Turkiston shahriga chekinishga majbur bo‘ldi. Buning natijasida uning Farg‘onadagi hokimiyati tugatildi.

1512 yildagi Raboti Malik jangida Bobur mirzoning shayboniy sultonlardan mag‘lub bo‘lishi va ko‘p o‘tmay Samarqandni tark etishi Sevinchxojaxonning Farg‘onani qaytarib olishi uchun qulay sharoit tug‘dirdi. Lekin shunga qaramay, Sevinchxojaxon Farg‘onani faqat 1514 yiliga kelib qaytarib olishga erishdi. Farg‘onani shayboniylar muklari tarkibiga qaytarilishining kechikishiga bir necha voqealar sabab bo‘ldi.

Birinchidan, shayboniylarning Najmi Soniy bilan G‘ijduvon yaqinida bo‘lgan jangida ishtirok etgan Sevinchxojaxon Farg‘ona masalasiga e’tibor qarata olmagan.

Ikkinchidan, uning 1513 yili vodiyni Sulton Saidxon boshchiligidagi mo‘g‘ullardan qaytarib olish maqsadidagi qilgan yurishi samarasiz yakunlangandi.

Uchinchidan, bu vaqtda qozoqlar Toshkent shahrini zabt etishga maqsadida bir necha bor bosqinlar uyushtirdilar. Qolaversa, Farg‘ona hukmdori Sulton Saidxon ham qozoq xoni Qosimxon bilan Sevinchxojaxonga qarshi ittifoq tuzishga harakat qildi. Bular barchasi Sevinchxojaxon tomonidan Farg‘ona vodiysini qaytarib olishini kechiktirdi.

1514 yili Sevinchxojaxon katta qo‘shin bilan vodiyga bostirib kirganida Sulton Saidxon jangsiz Farg‘onani tark etishga majbur bo‘ldi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysida Sevinchxojaxon hukmronligini ikkinchi bosqichi 1514 yildan boshlandi.

Jonibek sultonning Farg‘onadagi hokimligi davrida Xo‘jand shahrining Farg‘ona suyurg‘oli tarkibiga kirganligi xususida aniq ma’lumot yo‘qligini ta’kidlagan edik. Sevinchxojaxon davriga kelib esa butun Farg‘ona vodiysi Xo‘jand viloyati bilan birgalikda uning boshqaruvi ostiga o‘tgan. Garchi Xo‘jandning Sevinchxojaxon mulklari tarkibida bo‘lganligi haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lmasak-da, Shohruxiya va O‘ratepa viloyatlarining Toshkent xoniga bo‘ysunganligi hamda uning o‘g‘illari tomonidan boshqarilganligi bizga shunday xulosa chiqarish imkonini beradi [4]. Andijon, Axsi, Marg‘ilon, O‘ratepa va Shohruxiya viloyatlari Sevinchxojaxon ixtiyorida bo‘lgani holda, Xo‘jand viloyatining boshqa bir xon tasarrufida bo‘lishi amri mahol edi.

Farg‘ona vodiysining tark etgan mo‘g‘ul xoni Sulton Saidxon Qoshg‘arni Aboboakr mirzodan tortib olib, u yerda mustahkam davlat tuzdi. Qoshg‘arda kuch to‘plagan mo‘g‘ullar, Farg‘onani qayta qo‘lga kiritishga harakat qilishdi. 1516 yilning yozida Sulton Saidxon ko‘plab lashkarlar bilan vodiyga yurish boshladi. Uning qo‘shini Chodirko‘lga yetib kelganida Sulton Saidxonning ukasi Bobojoq sulton ham mo‘g‘ullarning asosiy kuchlariga kelib qo‘shildi. Lekin kutilmaganda, Qoshg‘ar qo‘shini Arpayozidan ortga qaytib ketgan. Buning sababini Haydar mirzo “Tarixi Rashidiy” asarida Bobojoq sulton tomonidan kelasi yili yanada ko‘proq kuch to‘plab, birgalikda Farg‘ona vodiysiga yurishi qilish taklifi berilgani bilan izohlaydi [5]. Biz ushbu fikrni rad etmagan holda, mo‘g‘ul qo‘shinining ortga qaytib ketishiga shayboniylar davlatida siyosiy barqarorlik hukm surayotganligi ham ta’sir qilgan, deb o‘ylaymiz.

1525 yil Sevinchxojaxonning vafot etganligi xaqidagi xabar Farg‘ona vodiysida siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirdi. Bu xaqida Haydar mirzo quyidagilarni bayon qiladi: “Suyunjikxonning o‘lganini eshitib, o‘sha o‘lkalarning butun aholisi – olim, hunarmand,

dehqonlar, barcha-barchasi oyoqqa turishdi. Ular Suyunjikxonning o‘limidan keyin o‘zbeklar orasida hali-beri birdamlik bo‘lmaydi, deb o‘ylashdi va: “O‘zbeklar aniq bir to‘xtamga kelguncha Andijonni egallab, qal’ani mustahkamlaymiz-da, o‘zimiz toqqa chiqib ketamiz. O‘zbeklar bizni tog‘ oraliqlaridan topisholmagach, qal’ani ham qamal qilisholmaydi”, degan rejani tuzishdi”[5]. Manbadagi ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, shayboniylarning Farg‘ona vodiysidagi hokimiyati, aholini o‘troq qismi bo‘lmish ziyolilar, hunarmand va dehqonlar orasida mustahkam emas edi. Bu esa o‘z hukumronligining dastlabki yigirma yilida shayboniylar aholini ushbu qatlamlari manfatlarini himoya qila olmaganliklarini ko‘rsatadi. Shayboniylar tomonidan qo‘yilgan ba’zi hokimlarning xalq orasida ham, nufuzli ruxoniylar orasida ham mavqeyi yuqori emasligi xususidagi ma’lumotlar manoqiblarda uchraydi.

Misol uchun Muhammad Mufti Ohangaroniy qalamiga mansub “Mavlono Lutfulloh manoqibi”da yozilishicha, Marg‘ilon shahar hokimi shahar aholisi bilan ko‘p bora ziddiyatlarga borgan. “Mavlono Lutfulloh aytdilar: - , deb yozadi Muhammad Mufti Ohangaroniy, “Iyd ya’ni hayit payti Mavlono Shoh Husayn iydgohda va’zu nasihat qilib, minbardan tushayotganlarida bir kishi kelib Mavlono Shoh Husaynga o‘z arzu holini aytdi. Ul g‘aribning o‘g‘il farzandi bo‘lib, uni Marg‘inon shahar hokimi xusumatdan hibs qilgan ekan. Ul faqir Mavlono Shoh Husaynga arz bayon qilganida shahar hokimi ham ul jamoatda ekan. Shunda Mavlono Shoh Husayn hokimga qarab: “Bu g‘aribning farzandidan bo‘lak xusumat birla hibsga olgudek odam yo‘qmi?”, deb g‘azabli nazarlarini hokimga qaratdilar. Hokim o‘rnidan turib, ba’zi akobirlari bilan Mavlono Shoh Husaynga arzi hol qilib, ul farzandni ozod etib qo‘liga topshirdi”[6]. Shu mazmundagi boshqa hikoyada aytilishicha, Marg‘ilon shahar madrasaning mudarrisi bo‘lmish Mavlono Shoh Husaynga shahar hokimining zolimligi ustidan shikoyat qilib kelganlar. Mavlono Shoh Husaynning karomatidan keyin shahar hokimi Toshkentga chaqirilgan va qilgan gunohlari uchun dorga osilgan. Manoqibda bunday misollardan bir nechtasi keltirilgan. Mavlono Shoh Husaynning XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi choragida yashaganligidan kelib chiqsak, ushbu voqealar Sevinchxojaxon davriga to‘g‘ri kelishi oydinlashadi. Manbadan keltirilgan ushbu ma’lumotlar Sevinchxojaxonning Farg‘ona vodiysidagi noiblari mahalliy aholi o‘rtasida yetarli nufuzga ega emasligidan dalolat beradi.

Bizningcha, 1525 yili yuz bergan Farg‘onadagi qo‘zg‘alonda asosan shahar va uning atrofidagi qishloqlar aholisi ishtirok etgan bo‘lishi kerak. Tog‘ yon bag‘rilarida yashovchi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi esa ushbu qo‘zg‘alonni qo‘llab quvvatlamagan. Shuningdek, qo‘zg‘alonchilarning Sulton Saidxon bilan aloqa o‘rnatganligi hamda o‘z harakatlarini u bilan muvofiqlashtirib olib borganliklari xaqida ham ma’lumotlar mavjud emas. Shayboniy sultonlar Farg‘ona vodiysidagi siyosiy voqealarga to‘g‘ri baho berishgan va vodiyni qo‘ldan chiqarmaslik uchun o‘zlarining barcha kuchlarini ushbu masalaga jalb etishgan. Haydar mirzo tomonidan shayboniylarning Farg‘onaga yetib kelgan qo‘shinlari adadi yuz ming kishilik lashkardan iborat ekanligi haqidagi ma’lumotidan ushbu yurishga Movorounnahrdagi barcha kuchlar safarbar qilinganligi ko‘rinadi. Shayboniylar o‘zlarining tezkor harakatlari bilan Sulton Saidxon yetib kelgunga qadar Andijon qo‘zg‘alonini bostirishga, hech bo‘lmaganda ularni o‘zaro birlashishlariga qarshilik ko‘rsatishga harakat qilganlar.

Qo‘zg‘alonni bartaraf etish uchun jalb etilgan shayboniylar lashkari urishning yettinchi kuni Andijonni qurshovga olishga erishgan. Natijada Sulton Saidxonning qo‘zg‘alonchilar bilan birlashish imkoniyati qolmagan va u Koshg‘arga qaytishga majbur bo‘lgan. Ko‘rinadiki, Andijonni qamalga olinishi natijasida u yerdagi shayboniylarga qarshi kuchlar bilan birlasha olmagan Sulton Saidxon vodiyni egallashdan umidini uzgan. Qolaversa, o‘zi jang bilan zabt etgan O‘zgan shahri va Modu qal’asini tark etishga qaror qilgan. Yu.Breygel ham shayboniylar davriga bag‘ishlangan xaritasida Sulton Saidxon 1525 yilgi yurishi davomida o‘z qo‘shinlari bilan Andijon shahri yaqiniga yetib kelganligini ko‘rsatgan [7].

Farg‘ona shayboniylar davlatining sharqiy hududlaridagi eng muhim viloyatlaridan biri bo‘lganligi uchun ham shayboniy sultonlar uni qo‘ldan chiqarishni hoxlamadilar va barcha kuchlarni ushbu yurishga jalb qilganlar. Afg‘onistonda o‘z davlatini barpo etgan Bobur mirzo bu vaqtda Hindistonni zabt etish uchun harbiy harakatlarni boshlaganligi uchun bo‘lsa kerak, u Farg‘ona vodiysidagi qo‘zg‘alonga e’tibor qaratmagan. Har xolda “Boburnoma”da ushbu qo‘zg‘alon haqida ma’lumotlarni uchramasligi bizni shunday hulosaga kelishga undaydi [10]. Qolaversa, Sulton Saidxonning Farg‘ona vodiysi va Badaxshonga davogarlik qilayotgani Bobur mirzoni Hindiston masalasidan chalg‘imasligiga sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak.

1525 yili Ismoil Safaviyning vafot etishi natijasida Safaviylar davlatidagi ichki siyosiy vaziyatning keskinlashganligi shayboniylarga o‘zlarining barcha harbiy kuchlarini Farg‘ona vodiysidagi qo‘zg‘alonni bostirish uchun jalb etishlariga imkon yaratgan edi [8].

Yuqorida aytganimizdek, Sevinchxojaxon Farg‘ona vodiysini o‘zi tayinlagan hokimlar orqali boshqargan. Lekin ushbu hokimlarning nomlari manbalarda saqlanib qolmagan. Faqatgina A.Juvonmardiev tomonidan e’lon qilingan “Yorliqlar to‘plami”ning biz o‘rganayotgan davrga oid hujjatlaridan birida Muhammad Mamanbiy nomi qayd etiladi [9]. Garchi Mamanbiy tomonidan imzolangan yorliqda sana ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ushbu yorliq Axsi viloyatining Koroskon hududidagi mulkdor Fozil Aliga berilgandan kelib chiqib, uning sanasini XVI asrning birinchi choragi bilan belgilash mumkin. Chunki Fozil Ali nomiga berilgan xujjatlarning xronologik chegarasi 1506-1532 yillarni tashkil etadi. Mazkur yorliqqa asoslanib aytish mumkinki, Axsi viloyatini Muhammad Mamanbiy ismli hokim boshqargan. Afsuski unng hokimlik qilgan davri va u boshqargan hududlar haqida to‘liq ma’lumotlar mavjud emas. Lekin Muhammad mufti Ohangoroniyning “Mavlono Lutfulloh manoqibi ” asarida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Marg‘ilon hokimi to‘g‘ridan to‘g‘ri Toshkent shahridan turib o‘z mulklarini boshqargan Sevinchxojaxonga bo‘ysungan. Chunki manbada keltirilishicha, Marg‘ilon shahrining aholisi bir necha bor o‘z hokimlari ustidan norozi bo‘lib Toshkent xoniga murojaat qilishgan. Bu hokimlarga nibatan choralar ham Toshkeni xoni tomonidan ko‘rilgan. Shundan kelib chiqib, Farg‘ona vodiysidagi yirik shaharlarning, jumladan, Axsi, Andijon, Marg‘ilon va Xo‘jand hokimlari to‘g‘ridan to‘g‘ri Sevinchxojaxonga bo‘ysunganligi haqida fikr bildirish mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa sifatida aytish mumkinki Sevinchxojaxonning Farg‘ona vodiysi ustidan hukmronlik davri ikki bosqichga bo‘linadi. U birinchi bosqichda vodiyni to‘la o‘z

tasarrufiga olishga ulgurmagan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda bu vazifni to‘liq uddaladi hamda vafotiga qadar vodiyni o‘z mulklari tasarrufida saqlab turdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov B. Inclusion Of The Fergana Valley Into The State Of Amir Timur. History Research Journal. Vol-5-Issue-5-September-October-2019 – P. 1154-1158.
2. Yuldashev S.B. Ferghana in the VII century: It’s development as a powerful state and its collapse // History Reseach Journal. 2019 vol. 5. Issue 6. – P. 2952–2964.
3. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod / Fors tilidan tarjima, izohlar va ko‘rsatkichlar mualliflari: Ismoil Bekjonov, Dilorom Sangirova – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 430. 118-119 b.
4. Zayniddin Muhmud Vosifiy. Badoe’ul vaqoe’ / Forsiydan Naim Norqulov tarjimasi – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. 131-145 b.
5. Mirzo Muxammad Xaydar. Tarix-i Rashidi / Vvedenie, perevod s persidskogo A. Urunbaeva, R.P. Djalilovoy, L.M. Yepifanovoy, primechaniya i ukazateli R.P. Djalilovoy i L.M. Yepifanovoy – T.: Fan. 1996-S. 344; Muhammad Haydar Mirzo Tarixi Rashidiy / So‘z boshi va izohlar muallifi hamda tarjimonlar V. Rahmonov va Ya. Egamova – T.: Sharq, 2010. 525-b.
6. Muhammad Mufti Ohangaroniy. Mavlono Lutfulloh manoqibi / Fors tilidan Abdullohxo‘ja Ma’rufxo‘ja o‘g‘li va Shuhrat Sirojiddinov tarjimasi – T. 2002. 27-b.
7. Bregel, Yuri. An historical atlas of Central Asia.p.cm. – (Handbook of Oriental Studies Section eight. Central Asia; vol.9), – Leiden Boston: Brill, 2003. P.53.
8. Eskandar Beg Monshi. History of Shah Abbas the Great / translated by Roger M. Savory – Colorado. Westview Press, 1930. P. 73-74.
9. Juvonmardiev A. XVI – XIX asrlarda Farg‘onada yer-suv masalalariga doir – T.: Fan, 1965. 78-b.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiev. – T.: Yulduzcha. 1989. 231-b.